

---

## Qo'shtepalik yoshlar faoliyatiga bir nazar

### **Sarhisob**

O'tgan 2024 yilda "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida Qo'shtepa tumanida 5tashabbus.uz sayti orqali elektron ro'yxatdan o'tib tuman bo'yicha jami 39 582 nafar yoshlar olimpiada, tanlov va musobaqalarda qatnashish uchun ro'yxatdan o'tdi.

Jumladan, "Bo'zatov yoshlar ovozi" viloyat bosqichi tanlovida "Ko'prikboshi", "Sohibkor", "Vatan", "Kattaboltako'l", "Xo'jaqishloq" mahallalarining yoshlari munosib ishtirok etdilar. Ulardan "Kattaboltako'l" mahallasining iqtidorli yoshlaridan biri Ilhomjon Muhtorov Respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Bundan tashqari sportning futbol turi bo'yicha DXX kubogi musobaqasining viloyat bosqichida ishtirok etgan "Borot" mahallasining yoshlari faxrli 2- o'rinni egalladi.

Shuningdek, qo'shtepalik yoshlarimiz "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida 6 ta yo'nalish bo'yicha Respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritishdi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'tgan yillari "Besh tashabbus olimpiadasi"ning Respublika bosqichida g'olib bo'lib sport maydonchasi yutib olgan mahalla yoshlari ham bor. Xususan, 2022-2023 yilgi mavsumlarda tuman bo'yicha jami 11 ta sport maydonchasi yutib olinib, qurib foydalanishga topshirilgan. Bu ko'rsatkich bo'yicha Qo'shtepa tumani Respublikamizdagi 208 ta tuman va shaharlar orasida 9-o'rinda bormoqda.

Yuqoridagilardan tashqari mahalla yoshlar yetakchilari ham viloyat va Respublika darajasida bir qator yutuqlarga erishdilar. Jumladan, "Yetakchi spartakiyadasi" doirasida o'tkazilgan 7 ta musobaqadan 3 tasida Qo'shtepa tumani yoshlar yetakchilari g'olib bo'lishib, 19 ta tuman va shaharlar o'rtasida viloyatda 1-o'rinni egalladilar.

Shuningdek, viloyatdagi 1064 ta mahalla yoshlari orasidan 2 nafar yoshlar "O'zbekiston iftixori" ko'krak nishoniga munosib ko'rildi va "Xo'jaqishloq" mahallasi yoshlar yetakchisi Xamdjon Mahmudov "O'zbekiston iftixori" ko'krak nishonini olishga muvassar bo'ldi.

2025-01-03 12:48:05